**O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent moliya instituti**

**TASDIQLAYMAN**
**TMI rektori M.Sharifxodjaev**

______________

**"29" avgust 2004 y.**

# *"Siyosatshunoslik"*

**fanidan**
**DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 – "Biznes va boshqaruv" hamda 140000 - «O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» bilim va ta'lim sohalaridagi**
**5340200 – "Menejment";**
**5340600 – "Moliya";**
**5340700 – "Bank ishi";**
**5340800 – "Soliqlar va soliqqa tortish";**
**5340900 – "Buxgalteriya hisobi va audit";**
**5140900 – "Kasb ta'limi" (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)**

**TOSHKENT-2004**

*Annotatsiya*

**o'zbek tilida:**

Dasturda zamonaviy siyosiy jarayonlar asosida siyosiy qayotning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqboli, jamiyatning siyosiy qayoti, siyosiy tizim, O'zbekistonda davlat qurilishining konstitutsiyaviy-ququqiy asoslari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar va qarakatlar, siyosiy raqnamo, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi, siyosiy madaniyat masalalari o'rin olgan.

**rus tilida:**

V programme v kontekste sovremennxx politicheskix protsessov otrajen: vozniknovenie, etapsh i perspektiv razvitiya politicheskoy jizni obgtsestva, politicheskaya sistema, konstitutsionno-pravovyu osnov: gosudarstvennogo stroitelstva v Uzbekistane, politicheskie partii, obgtsesvennme organizatsii i dvijeniya, politicheskiy lider i politichiskaya sotsializatsiya.

**ingliz tilida:**

In given rgoggamme modegn rolitisal rgosesses, fogmation, stages and regsrestives of state s rolital life develorment, rolitical sustem, the basis of sonstitutional judicial state building in Uzbekistan; rolitical parties, public organizatotion and movements, rolitical leader, rolitical socialization of a regzon, roitical cilture age sonsideged.

**Tuzuvchilar:**
prof. N.T.Shodiev.
prof. S.Ґasanov
dots. R.Umarova
dots. A.B.Eshonqulov
dots. S.O'lmasov.
**Taqrizchilar:**
dots.D. Vohidova
(Toshkent yuridik
instituti)
k.o'. V.V. Igoshin.

**Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muqokama qilingan va tasdiqlangan 2004 yil 29 avgust**
**1-sonli bayonnoma**

## 1.So'zboshi

Siyosiy hayot dinamik va murakkab jarayonlar majmuidir. Ana shu jarayonlarning tahlil hamda ilmiy-nazariy va amaliy umumlashmasi "Siyosatshunoslik" fanining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Fanning tarixi, rivojlanish boshichlari va hozirgi mahomi yaxlit mushtaraklikda o'rganilgan holda, asosiy e'tibor jamiyat siyosiy institutlari va ular tizimi, rang-barang tarkibiy tuzilmasi, tashkiliy-funktsional faoliyati, siyosiy ong va siyosiy madaniyat mohiyatlari tahliliga qaratiladi. Jumladan, siyosiy rejim, davlat hokimiyati, siyosiy institutlar, turli siyosiy manfaatlar, siyosiy konfliktlar, tashqi siyosat, siyosiy elita, siyosiy rahnamolik, siyosiy dunyoqarash, xulq-atvor bilan bog'liq muammolar zamonaviy umumjahoniy tizimlar, ularning tashkiliy-institutsional tarkiblar hamda umummushtarak maqomlari misolida umumnazariy yo'sinda o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimi va siyosiy-institutlarning tarkibiy-konstitutsiyaviy maqomlari hamda funktsiyalari mustaqil tahlil ob'ektiga aylanadi.

Mustaqil O'zbekistonda yangicha siyosiy ong va dunyoqarashni, etuk siyosiy madaniyatni tarbiyalash hamda shakllantirish, siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish muammolari dasturda maxsus rejaviy ifodasini topgan.

Fanni o'qitishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, I.A.Karimovning siyosiy ta'limoti, o'tmish mutafakkirlarining siyosiy qarashlari va dunyoning qadim hamda zamonaviy boy siyosiy an'analari, tajribalari, saboqlari xizmat qiladi.

"Siyosatshunoslik" fanini o'qitish jarayonida talabalarga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tiladi. Ularning bilimini mastahkamlash maqsadida test variantlari, yozma ishlar olinadi va tayanch iboralarga izohlar beriladi.

Ish dasturini tuzishda Namunaviy dastur asos qilib olinadi. Fanni o'qitishning maqsadi - siyosat nazariyasining kontseptual shakllanishi hamda siyosat tushunchasining qamrov doirasi, siyosiy g'oya va tamoyillarning kelib chiqish bosqichlari, jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro'y beradigan qonuniy jarayonlar bilan bog'liq masalalarning tahliliy umumlashmasidan ma'rifiy, ilmiy-nazariy saboq berish, ularning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini o'stirishdan iborat.

Vazifasi – iqtisodchi-bakalavrlarga siyosatshunoslik asoslaridan saboq berish, siyosiy hayotni tahlil qilish uslubiyoti bo'yicha ma'lumot berish, siyosiy voqelikni holisona baholashda zarur bo'lgan dunyoqarash mezonini shakllantirish, siyosatshunoslik asoslari bo'yicha amaliy malakasini oshirish, siyosiy xatti-harakat me'yorlari bilan tanishtirish vositasida ularning yuksak siyosiy ongi hamda siyosiy madaniyatini tarbiyalash, mamlakat siyosiy hayotida ro'y beradigan turfa jarayonlarga ongli faol ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish.

Bakalavrlar siyosiy muammolarni yaxshi bilishlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Prezident I.A.Karimov asarlarini, nazariy-uslubiy manbalarni chuqur

o’zlashtirishlari, turli siyosiy ta’limotlar, siyosiy rejimlar, ularning rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy ma’lumotga ega bo’lishlari lozim.

"Siyosatshunoslik" fani falsafa, huquqshunoslik, iqtisodiyot, tarix, O’zbekiston demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, dinshunoslik, mafkura, elshunoslik, ruhshunoslik, sotsiologiya kabi fan va sohalar bilan uzviy aloqadorlikda o’rganiladi.

"Siyosatshunoslik" fani kompyuter, audio, vidio, videotexnikadan foydalanib o’qitiladi.

Fan bakalavrlar tayyorlash yo’nalishlarining 4-kurs 7-semestrlarida o’qitiladi. Barcha ma’ruza va seminarlar tegishli uslubiy ko’rsatmalar bilan ta’minlangan. Fan o’qitish soatlari: jami-44, shu jumladan; ma’ruza-16 soat, seminar-18 soat, mustaqil ta’lim-10 soat.

Ish dasturni tuzishda barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o’zgarishlarni, ularning Islom Karimov asarlarida aks etishini va siyosiy sohada beriladigan prognozlarni e’tiborga olish lozim.

## 2. Fan dasturi

**Siyosatshunoslik fanining predmeti, usullari, uslubiyoti va vazifalari. "Siyosatshunoslik"fanining boshqa ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va o'ziga xosligi.**

"Siyosatshunoslik" tushunchasining mohiyati. "Siyosatshunoslik" fanining predmeti, sub'ekti, o'rganish ob'ekti va tarkibi. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi hamda oliy o'huv yurtlarda o'hitilishi. Fanning kategoriyalari hamda honuniyatlari. "Siyosatshunoslik" fanining usullari, uslubiyoti va funktsiyalari. Siyosatning sohalari.

"Siyosatshunoslik" fanining boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni va roli, ularning o'zaro alohadorligi hamda o'ziga xosligi. Fuqarolarning siyosiy ongini oshirishda "Siyosatshunoslik" fanining roli.

**Siyosiy ta'limotlar tarixi va rivoji: gnoseologik asos-manbalar, bosqichlar, qarashlar va yo'nalishlar.**

Siyosiy qarashlarning vujudga kelishi. Antik dunyo siyosiy ta'limotlari. Aflotun, Arastu, Suqrot, Tsitseronlarning siyosiy qarashlari va asarlari. "Avesto"da siyosiy qarashlar va g'oyalar.

Sharq va g`arbda o'rta asrlar hamda Uyg'onish bosqichlarida siyosiy ta'limotlar. Abu Nasr Forobiyning "Odil jamiyat" nazariyasi. N.Makiavellining siyosatshunoslikda tutgan o'rni.

*Temuriylar davlati, uning tuzilishidagi asosiy tamoyillar. "Temur tuzuklari".*

XVIII-XX asrlarda §arbiy Ovrupo va Turkistondagi siyosiy qarashlar. XX asr siyosatining o'ziga xosligi.

**Jamiyatning siyosiy hayoti. Siyosiy tizim va siyosiy rejim. Siyosiy tartibotlar.**

Jamiyatning siyosiy hayoti tushunchasi va uning mohiyati. Siyosiy hayot taraqqiyotini bashorat qilish muammolari.

Siyosiy tizim, uning tarkibiy qismlari va vazifalari. Siyosiy tizim va siyosiy munosabatlar. Siyosiy tizimda davlat boshqa siyosiy tashkilotlarning roli.

O'zbekiston jamiyat siyosiy tizimining takomillashuvi.

Siyosiy rejimning mohiyati va uning tasnifi. Demokratiya, totalitarizm va avtoritarizm. Demokratiyaning mexanizmi. Demokratiyaning shakllari. Demokratiyaning zamonaviy modellari. *Demokratik, fuqarolik jamiyati tushunchalari. I.Karimov asarlarida demokratik davlat qurilishining nazariy jihatdan asoslanishi.*

**Davlat siyosiy institut sifatida, davlatning funktsiyalari. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va milliy siyosat.**

Davlat, uning mohiyati va tarixiy turlari. Davlatning belgilari. Davlat hokimiyati va uning shakllari. Siyosiy hokimiyati tushunchasi va uning tuzilishi. Ґokimiyatning legitimligi. Ґokimiyat va siyosiy manfaatlar.

Ґokimiyatni amalga oshirish mexanizmi. Davlat hokimiyatining turlari va shakllari. Davlatning funktsiyalari. Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, milliy siyosati.

*O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi. O'zbekistonda demokratik hokimiyat organlarining tashkil etilishi.*

**Siyosiy partiyalar va harakatlar, oqimlar. Jamiyat va nodavlat tashkilotlari.**

Siyosiy partiya tushunchasi. Partiya tizimlari va ularning tasnifi. Siyosiy partiyalar va harakatlar. Siyosiy partiyalarning strategiyasi va taktikasi. Siyosiy partiyalarning funktsiyalari.

*O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va harakatlar. Respublikamizda ko'ppartiyaviylikning vujudga kelishi.*

Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotining demokratiyalashuvidagi o'rni. Jamiyat va nodavlat tashkilotlari, ularning mohiyati. Respublikamizdagi jamoat va nodavlat tashkilotlari. "Kamolot" yoshlar harakati.

**Siyosiy rahnamo. Siyosiy elita va uning mohiyati.**

Siyosiy rahnamo tushunchasi va tabiati. Siyosiy rahnamo shaxsi va sifatining siyosatdagi o'rni. Siyosiy rahnamo tasnifi. Siyosiy hukmron guruh va siyosiy elita. "Elita" nazariyasi. Siyosiy rahnamolik tushunchasiga doir yondoshuvlar. Rasmiy va norasmiy rahnamo. Siyosiy rahnamo haqidagi volyutaristik nazariyasi va ularning reaktsion xarakteri. R.Takerning siyosiy rahnamo haqidagi tasnifi.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy arboblar.

Ґozirgi davrda rahnamolik rivojlanishining yangi tendentsiyalari.

*Prezident Islom Karimovning siyosiy portreti.*

**Shaxs va siyosat. Siyosiy ijtimoiylashuv. Siyosiy madaniyat.**

Shaxs tushunchasi. Individ va individuallik. Shaxs va siyosat. Shaxsning siyosiy turlari.

Siyosiy ijtimoiylashuv va uning mohiyati. Ijtimoiylashuv bosqichlari. Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi omillari, vositalari va usullari. Siyosiy faoliyat. Shaxsning siyosiy huquq va erkinliklari.

Siyosiy ong. Siyosiy madaniyat tushunchasi va uning mohiyati.

Siyosiy madaniyatning vazifalari.

*O'zbekiston fuqarolarida siyosiy ongni shakllantirish: muammolar va echimlar.*

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimi. Siyosiy islohotlar va siyosiy sohani erkinlashtirish muammolari. Islom Karimovning siyosiy ta'limoti.**

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-mustaqil davlatning huquqiy poydevori.

O’zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi.

I.A.Karimovning siyosiy ta’limoti, uning nazariy va amaliy mohiyati. O’zbekiston taraqqiyotining modeli va olti ustuvor yo’nalishi.

*Siyosiy islohotlar va siyosiy sohani erkinlashtirish muammolari.**Izoh:** mustaqil ta’limga tavsiya etilgan mavzu va kichik mavzular kursiv bilan ajratildi*

## 3. Seminar mashg'ulotlari mavzulari

**"Siyosatshunoslik" fanning predmeti, tarkibi, usullari va vazifalari ham boshqa ijtimoiy fanlar bilan munosabat.**

"Siyosatshunoslik" fanining predmeti, tarkibi.*

"Siyosatshunoslik" fanining kategoriyalari va honuniyatlari.

"Siyosatshunoslik" fanining usullari hamda uslubiyoti.

"Siyosatshunoslik" fanining funktsiyalari.

"Siyosatshunoslik" fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan munosabati.

**Siyosiy ta'limotlar tarixi va rivojlanish bosqichlari.**

Antik dunyo siyosiy ta'limotlari, "Avesto"da siyosiy qarash va g'oyalar.*

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va §arbiy Ovropada siyosiy ta'limotlarning o'ziga xosligi.

Sharq va §abrda Uyg'onish davridagi siyosiy qarashlar.

XVSh-XX asrlarda siyosiy qarashlarning rivojlanishi.

**Ґozirgi siyosiy jarayonlar va siyosiy sohani erkinlashtirish qonuniyatlari.**

Ґozirgi siyosiy jarayonning o'ziga xosligi va umumbashariy muammolarning birinchi o'ringa chiqish.*

Davlatlararo munosabatda xalqaro tashkilotlar roli va ta'sirining kuchayishi.

Sobih totalitar davlatlarning demokratlashuvi. O'zbekistonda demokratik davlat tizimining barpo etilishi.

**Siyosiy tizim va siyosiy rejim.**

Jamiyat siyosiy tizimining tarkibi, ularning xususiyatlari va turlari. O'zbekistonning siyosiy tizimi.*

Siyosiy rejim, uning mohiyati va tasnifi. Demokratiya. Avtoritarizm. Totalitarizm.

Demokratiyaning tamoyillari va mexanizmi. Demokratiyaning shakllari. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish bosh yo'l.

**Davlat siyosiy institut sifatida.**

Davlatning kelib chiqishi va tarixiy turlari.*

Davlatning bajaradigan vazifasiga ko'ra turlari. Davlatning funktsiyalari. Davlat va hukumat munosabatlari.

O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilish shakli. O'zbekistonda davlat faoliyati takomillashuvining o'ziga xos yo'li.

**Ijtimoiy siyosiy tashkilotlar, harakatlar va oqimlar hamda ularning mohiyati, tasnifi.**

Ijtimoiy tashkilotlar, harakatlar, oqimlar va ularning mohiyati tasnifi. Siyosiy harakat va oqimlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o’rni va roli.

Siyosiy partiya tushunchasi, uning asosiy belgilari, tuzilishi va vazifalari. Siyosiy partiyalarning siyosiy harakatdan farqi.*

O’zbekiston Respublikasidagi siyosiy partiyalar va ularning faoliyati. "Kamolot" yoshlar tashkilotining ijtimoiy hayotdagi o’rni.

**Siyosiy rahnamo. hukmron guruh va siyosiy elita, ularning mohiyati. Siyosiy rahnamo, uning xususiyatlari, tasnifi. Siyosiy raxnamoning vazifalari.**

Ґukmron guruh, uning mohiyati va tasnifi.

Siyosiy elitaning ijtimoiy tabiati. Siyosiy elitaning vazifalari.*

Jahon tarixida Amir Temurning o’rni va roli.

I.A.Karimov O’zbekistondagi osoyishtalik, barqarorlik va yuksalish me’mori.

**Siyosiy ijtimoiylashuv. Siyosiy ong va siyosiy madaniyat.**

Shaxs va individ tushunchalari. Shaxsning siyosiy hayotda egallagan o’rni. Shaxs siyosatning individuallashgan sub’ekti sifatida.

Siyosiy ijtimoiylashuv, uning mohiyati va bosqichlari. Inson huquqlari erkinliklari, burchlari va uning kafolatlari. Siyosiy ong tushunchasi va uning darajalari. Siyosiy madaniyat va madaniy siyosat. Siyosiy madaniyatning vazifalari.*

Siyosat va yoshlarni ijtimoiy himoyalash, uning mahsad va vazifalari.

**O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. I.A.Karimovning siyosiy ta’limoti.**

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - demokratik jamiyat qurishning asosiy qonuni. Umumxalq referendumi, uning ahamiyati.*

Islom Karimov - dunyoviy davlat asoschisi va nazariyotchisi.

O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. "O’zbek modeli" va taraqqiyotning ustuvor yo’nalishi.

**Ґozirgi siyosiy jarayonlar va siyosiy sohani erkinlashtirish qonuniyatlari.**

Ґozirgi siyosiy jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlari.

Siyosiy sohani erkinlashtirish muammolari va echimlari.

Demokratik jarayonlarni erkinlashtirish davlat rivojining ustuvor yo’nalishidir. Davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini erkinlashtirishning dolzarb vazifalari.*

Davlatlararo munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning roli.

**Laboratoriya ishlari namunaviy o’quv rejada ko’zda tutilmagan.**

**Kurs (loyiha) ishlari namunaviy o’quv rejada ko’zda tutilmagan.**

***Izoh:*** *majburiy mavzudagi mashg’ulotlar * bilan ajratildi.*

**4. Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'huv filmlari va boshha didaktik materiallar ro'yxati**

1. Resursi interneta dlya razvitiya sistemi obrazovaniya i nauki v Zapadnoy Evrope i SShA. http: //www. prof. msu. ru.
2. Political Theory. Mejdunarodniy jurnal politicheskoy filosofii.
www. Sage. Pub. Co. uk. /Journals /Details/ joo26. htm.
3. Politicheskie issledovaniya jur. RAN. www. politstues. ru
4. Programma otdeleniya politicheskoy nauki Universiteta SShA.. 5. Grajdanskoe soglasie, http: //soglasie. rostovcity. ru
6. Ekonomicheskaya sotsiologiya.
www. ecsoc. msses. ru • *
7. Jurnal Region: ekonomika i sotsiologiya, www psd. ad-sb ras.nsc. ru
8. Visshaya sotsiologiya, www nvrz. kuzbass. nel.
9. Istoriya zapadnoy sotsiologii. Slovar, www. socnet. narod. ru
10. Vozniknovenie sotsiologii i osnovnie napravleniya ee razvitiya, www. sharh. freenet. uz.
11. Uchebniy kurs sotsiologii.
zakrona. narod. ru

## 5. O'zlashtirishning nazorati
## Nazorat qilish turlari

«Siyosatshunoslik» faniga ajratilgan maksimal ball – 38 ball bo'lib, bundan joriy baholash (J.B.)ga 13 ball, oraliq baholashga (O.B.)ga 13 ball va yakuniy baholash (Ya.B.)ga 12 ball ajratilgan.

J.B.da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilim darajasini yozma va og'zaki ravishda aniqlab boriladi, tegishli ballar bilan baholanadi.

Oraliq ball nazoratni yozma ravishda o'tkaziladi va tegishli ballar bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat faqat yozma ravishda tegishli ball bilan baholanadi.

J.B. va O.B.da o'qituvchi dars davomida so'rov o'tkazish, test savollariga javob berish, nazorat ishlarini bajarish, kollokvium, suhbat va og'zaki hamda yozma shakllarda ijodiy foydalanadi.

O'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha 56-70% to'plaganlar «qoniqarli», 71-85% to'plaganlar «yaxshi», 86-100%dan to'plaganlar «a'lo» baholar bilan baholanadi.

## 6. Asosiy adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istilol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. - T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.Z. - T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. - T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5. - T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. T.8. - T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1998.
14. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. - T.: O'zbekiston, 1999.
15. Karimov I.A. Jamiyatni isloh qilish yo'lida. - T.: Sharh, 1999.
16. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000.
17. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. - T.: O'zbekiston, 2000.
18. Karimov I.A. Adolat - qonun ustuvorligida. - T.: O'zbekiston, 2001.
19. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo'limiz. T.: O'zbekiston, 2002.
20. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 2002.
21. Karimov I.A. Гayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. //Xalq so'zi. 2002 yil 10 dekabr.

## Qo'shimcha adabiyotlar


1. Aliqoriev N.S. Sotsiologiya va ta'lim taraqqiyoti. Ilmiy uslubiy yutuqlar va ilg'or tajribalar. - T., 1997.
2. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. - T.: ToshDU, 1999.
3. Aliqoriev N.S., Ubaydullaeva R. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. - Bishkek, 1999.
4. Karimov M.S. Vvedenie v sotsiologiyu. - M.: Nauka, 1994.
5. Kravchenko A.I. Osnovi sotsiologii. - M., 1998.
6. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - T.: Fan, 1993.
7. Nosirxo'jaev S. va boshqalar. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. - T., 2000. E
8. Radugin A.A., Radugin K.A. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. - M.: Tsentr, 1999.
9. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi. - T.: ToshDU, 1999.
10. Sotsiologiya tarixi. - T.: ToshDU, 1999.
11. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. (Karimova V. taxriri ostida). -T., 2000.
12. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. - T., 2000.
13. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. - Rostov-na-Donu.- Feniks, 1999.
14. Sulaymonova F. Sharq va g`arb. - T.: O'zbekiston, 1997.
15. Xan S., Xan V. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. - T.: Adolat, 1999.
16. Xarieva V. Osnova sotsiologii. Uchebnik. - M.: Logos. Vshshaya shkola, 1999. - 302 s.
17. Andri Lindra. Osnovi sotsiologii. Uchebnik dlya vuzov. - M.: SHTA VEME, 2000. - 344 s.
18. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya. Lug'at. - T.: Ibn Sino, 1999.
19. Xolbekov A. Sharq va §arb mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari. - T., 1999.
20. Umumiy sotsiologiya. - T.: ToshDU, 1999.
21. Sharifxo'jaev M., Shodiev N. i dr. Sila - v spravedlivosti. //Trud, 27 sentyabrya 2001 g.
22. Shodiev N. O'zbekiston milliy tiklanish bosqichida. - M.: Vega, 1999.
23. Shodiev N., Eofurov 3., Siddiqov B. Milliy mafkura va g'oya. -T.: TDTU, 1999.
24. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr tarixidan. - T.: Fan, 1995.